

HAQIRIY IJODIDA G'AZALLARNING TUTGAN O'RNI, SHOIR G'AZALLARINING MATNIY TADQIQI

Ahadov Inomjon Jamoliddinovich

Imom Buxoriy nomidagi TII o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902504>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Haqiriy qalamiga mansub “Devoni Haqiriy” ning janriy tarkibi, undagi g'azallarning matniy tadqiqi haqida so'z yuritildi. Navoiy va Haqiriy ijodining o'xshash taraflari, ularning ijodida g'oya va mazmun mushtarakligi mavzusida to'xtaldi.

Kalit so'zlar: Haqiriy, “Devoni Haqiriy”, janrlar, g'azal, g'azal tahlili, qiyosiy tahlil


Sharq xalqlari qadim zamonlardan buyon jahon madaniyatining ulkan xazinasiga o'zining mumtoz asarlari bilan hissa qo'shgan ko'pgina buyuk ijodkorlarni yetishtirib berdi. Ular merosini keyingi avlodga yetkazib berish nihoyatda zarurdir. Qo'lyozma manbalarni yig'ish, ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish muammolarini manbashunoslik va matnshunoslik ilmlarisiz, arabiy imlo malakalarisiz amalga oshirish imkonsizdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Roqim, Tabibiy, Bayoniy, Avaz, Niyoziy, Rog'ib kabi shoirlar ijodi ancha izchil o'rganilgan. Shu davrning yana bir iste'dodli ijodkori Muhammad Sharif maxsum Oxund Haqiriyning hayoti va adabiy merosi to'laligicha o'rganilgan emas. Bu iste'dodli va millatparvar shoir hayoti va ijodini o'rganish, xalqimizga etkazish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davri o'zbek matnshunoslari nafaqat salaflarining ilmiy yutuqlarini, balki, jahon matnshunoslik ilmidagi tajribalarni ham yaxshi o'zlashtirdilar. Bu jarayon, ayniqsa, keyingi yillardagi tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Eng muhimi, mazkur jarayonlarda jahon tajribasi va ustozlar an'anasidan foydalanish bilan birga, har bir tadqiqotchining o'z yo'li va o'ziga xos uslubi ham shakllandi. Ayni vaqtga kelib, ustoz matnshunoslarimiz professorlar Qosimjon Sodiqov, Zohidjon Islomov, Nasimxon Rahmonov, Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Nafas Shodmonov, Rashid Zohidov, Aftondil Erkinov kabi olimlar timsolida zamonaviy o'zbek matnshunosligining yetakchi vakillarini ko'rish mumkin. Mazkur olimlarning matnshunoslikning nazariy masalalari, tadqiqot metodlari va metodologiyasi borasidagi ilmiy xulosalari va erishgan natijalari, shuningdek, amaliy tavsiyalari sohaning yosh vakillari uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. Jumladan, biz ham mazkur tadqiqotda ularning tajribalariga tayandik, zarur o'rinlarda nazariy va amaliy tavsiyalaridan unumli foydalandik.

Qo'lyozmalar unsiz tarixdan so'zlaydi. Haqiriy devonining bizgacha saqlanib qolgan yagona nusxasi ham tariximizning unutilgan sahifalari, bizga noma'lum shaxslari faoliyatiga doir haqiqatlardan guvohlik beradi. Bu yagona qo'lyozma O'zRFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar fondida 7096–tartib raqami ostida saqlanadi. Devon devonchilik printsiplariga to'liq javob beradi deyish qiyin. Kitobda debocha yo'q. Qo'lyozmaning oxirgi varaqlari tushib qolgani sabab ko'chirilgan yili va kotibini aniqlash mushkul.


Haqiriy devoni devon tuzishning an'anaviy talablari asosida g'azallar radifi, qofiyasi tugagan alifbo tartibida tuzilgan. Devon nasta'liq xati bilan sarg'ish qog'ozga ikki ustunda, qora siyohda ko'chirilgan. Bir necha she'r hoshiyaga yozilgan.



***Sog' bo'l olamda taxti husn uzra ey dilrabo,
Aylagum subhi maso haqingg'a man mahzun duo.
Lol bo'lsin sandin o'zga otin olsa gar tilimni,
Kim zaborim dardidur ismi sharifing barpo.¹***

Aftidan, bular keyinroq ilova qilingan. Laffasov fikriga ko'ra, hoshiyada berilgan va qo'lyozmaning oxirgi varaqlariga ko'chirilgan she'rlar boshqa kotib tomondan yozilgan bo'lsa kerak. Chunki dastxat asosiy matndan birmuncha farq qiladi. Bizning fikrimizcha, hoshiyadagi bu she'rlarni va ayrim izohlarni shoir So'fining o'zi yozgan. Chunki bir muxammasning oxirgi bandi ham asosiy matnda, ham hoshiyada ikki xil variantda berilgan. Bundan tashqari, ba'zi izohlar ham beriladi. Qo'lyozma sahifalari she'rlar ko'chirilgan paytda tartibga solinmagan. Varaq pastidagi poygirlar yaxshi saqlangan. Sahifalarga arab raqamlari bilan tartib berilgan, bu tartibni bizningcha, Laffasiyning o'zi belgilab chiqqan bo'lsa kerak.

¹ Muhammadsharif Haqiriy. Devoni Haqiriy. - O'z RFA Sh I. Inv. 7096.- B. 2.



14-g'azal.

**Partav husningga behush ming dilu jonim fido,
Sarv oyo qomatingga naqdi iymonim fido.
Jon kabi kirgilki jism ichra ey nozik badan,
Alamu nozingni ushlab aylayin jonim fido.
Voh nechuk berahm erur bu ikki shahlo ko'zlaring,
Lahza boqmas qilsam arxonu olomonim fido.
Goh gohi man sori azm ila hoki poengga,
Aylayin ashkim nisoru diyda giryonim fido.
Xo'blar xo'bi mening gulimga eldin nihon,
Maqdamingg'a to qilay bedov pinhonim fido.
Ko'zu kulbamni yoritg'il shamsdek ruxsor ila,
Kim qilay yo'lo'ngda marjondek qizil qonim.
Nazmu navoim gar qabul bo'lsa oning dargohida,
Mashq aro bo'lsun Haqiriy aytay olg'onim.**

Ushbu g'azalda "Jon kabi" so'zi poygir sifatida qo'llanmoqda. Raqamlarni qo'yish jarayonida ba'zi bir chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Bundan ko'rinadiki, qo'lyozma sahifalari oralaridan tushib qolgan, varaqlar hisobga olinmasdan, sahifalarga raqamlar bir chetdan qo'yib chiqilgan.

Qo'lyozma 79-bet bilan tugagan. Ushbu so'nggi sahifada joylashgan muxammasning oxirgi bendlari yo'q. Demak, so'nggi varaqlar yo'qolgan va qo'lyozma aslida qancha betdan iborat bo'lgani bizga qorong'u.

Devonda debocha yo'q. Shu sababli devonga kiritilgan she'rlarning xronologiyasi ma'lum emas. Bu hol shoir ijodiy yo'lining tadrijiy o'sishini kuzatishga imkon bermaydi. Lekin shunga qaramasdan, ba'zi mavjud ma'lumotlar Haqiriyning dunyoqarashi har doim bir xilda bo'lmaganligidan dalolat beradi. Haqiriy ijodida, uning ijtimoiy qarashlarini bayon qilgan fikrlar nihoyatda ko'p bo'lib, ular shoirning deyarli ko'pchilik asarlarida uchraydi. Haqiriyning bu devoni biografik asar hamdir. Mazkur devonda ma'lum bir ijodkorlar haqida ham, shuningdek, shoirning o'zi to'g'risida ham biografik ma'lumotlar kam berilgan yoki, umuman, keltirilmagan bo'lsa ham, biz uning qaysi adabiy muhitning vakili ekanini bila olamiz.

Haqiriy o'z ijodiy faoliyati jarayonida yangi usullar va tajribalarni qo'llab ko'rishdan aslo chekinmadi. Haqiriy shoirlik faoliyatida o'zidan avvalgi so'z san'atkorlarining an'analarini davom ettiribgina qolmay, balki ba'zi adabiy janrlarning zimmasiga yangi vazifalarni "yukladi". Ya'ni endilikda devon ham zamon, ham makon, ham mavzu omillarini hisobga olgan holda tuzila boshlandi. Haqiriy yuqoridagi devoni misolida ushbu yangilanishlarni yaxlit bir tizimga solib, keyingi shoirlar uchun mahorat maktabini yaratdi. Zero, "Ijodkorlar hayoti va asarlarini tadqiq hamda targ'ib qilishda, davr adabiy jarayoni mohiyatini belgilashda milliy istiqloq g'oyasi, haqqoniylik va xolislik tamoyillari bosh mezon bo'lmog'i kerak. Bu esa ushbu davr adabiyotining bo'sh qolgan sahifalarini to'ldirishga, qator iste'dodli ijodkorlarni kashf etishga imkon beradi".

Haqiriyning devondagi she'rlari bevosita o'z davrining adabiy ehtiyojlariga ziyraklik bilan berilgan javob bo'ldi. Sababi bu davr ijodkori uchun hukmdorga ichki va tashqi siyosatni mohirona yuritishda, umuman, davlat boshqaruvida asqotishi mumkin bo'lgan asarlar yozish ham davr talabi, ham ijtimoiy xohish bo'lganini ko'ramiz. Tarixdan ma'lumki, bu davr hukmdorlari boshqaruvda, xususan, davlatning ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash maqsadida ilm hamda ijod ahlining xizmatidan unumli foydalanganlar. O'z saroyida ko'plab olim va adiblarni yig'ish, ilm va she'riyat majlislarini muntazam tashkil etish, kutubxonasini davrining eng so'nggi asarlari bilan boyitish hukmdorlarning kun tartibidagi masalalardan hisoblangan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning faoliyati fikrimiz isbotidir. Bu kabi nuqsonli jihatlarga qaramay, Haqiriyning devoni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan g'oyat qimmatli manba hisoblanadi. Devoni chuqurroq o'rganish va matniy izlanishlar olib borish navbatdagi vazifalardan biridir. Shu o'rinda Muhammad Karim Haqiriyga nisbat berilgan boshqa manbalarni tavsiflash orqali mavzuga oid ma'lumotlarni yanada aniqlashtirishga harakat qilamiz.

Muxtasar qilib aytganda, Haqiriy g'azallarining bosh qahramoni Alloh taolo, payg'ambar va shoirning o'zidir. Ularda muallifning ichki tug'yonlari, ruhiy iztiroblariyu-quvonchlariga oid qaydlar uchraydi. Shuningdek, shoir g'azaliyotidagi boshqa obrazlar: ma'shuqa, shoh, darvesh, shayx, zohid, orif, raqib kabi rang- barang badiiy timsollar asardagi yetakchi g'oyani sherxonga teran yetkazish uchun buyuk tafakkur sohibining taxayyul olamidani sherga ko'chadi hamda uning badiiy salohiyati yuksak g'azallarning vujudga kelishini ta'min etadi.

References:

1. Muhammadsharif Haqiriy. Devoni Haqiriy. - O'z RFA Sh I. Inv. 7096.

2. Hasanmurod qori Laffasiy. Tazkiraiy shuaro. - Xorazm, 1992.
3. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. Xurshid Davron kutubxonasi. – 2022.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. library.ziyonet.uz.

